

## JADIDLARNING MA'RIFATPARVARLIK HARAKATLARI VA ULARNING XALQ MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI O'RNI



**G‘ulomov Obidjon G‘ayratovich Toshkent arxitektura qurilish instituti “Falsafiy va ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasи o‘qituvchisi**

**Annotatsiya** Maqolada XX asrning 80-yillari o‘rtalaridan boshlangan demokratik oshkorlik va qayta qurish jadidchilik harakati haqida cheklangan holda bo‘lsa ham ayrim haqiqatlarni aytish imkonini bergan bo‘lsa Vatanimiz mustaqillikka erishgandan keyin ma’naviy-ma'rifiy hayotimizda jadidlarning o‘rnini, o‘rganishda ularning qarashlarini xolisona yoritib berish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Jadidlarning ma'rifiy faoliyati, uning tub mohiyati, ularning asarlaridagi asosiy g‘oyalari, haqida keng ko‘lamda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilayotganligi ochib berilgan.

**Kalit so’zlar** yangi usul maktablari , umidli yoshlarni chet ellarga o‘qishga yuborish jadidlarning ma'naviy- ma'rifiy g‘oyalari , Jadidchilik turkiy xalqlar, shu jumladan, o‘zbek xalqi tarixida yangi sahifani ochib bergan.

Mustaqillik yillarda milliy-ma'naviy tiklanish, milliy tarixni anglash, tarixiy adolatni tiklash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek «Biz yaxshi bilamizki, hayot tinimsiz izlanish, tinimsiz kurashdir. Xalqimizning boshidan kechirgan behisob qiyinchiliklari, mardona mehnatining samarasini ko‘rish, undan bahramand bo‘lish vaqtি yetib kelmoqda»[1]. Ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy- ma'rifiy harakat bo‘lmish jadidchilik ham sobiq totalitar tuzum tomonidan ta'qilangan hodisalardan edi.

Bu boradagi keng ko‘lamli yangilanishlar, ularning nomlari tiklanishi, asarlari o‘rganilishi tom ma'noda mamlakatimiz tarixida muhim voqyea hisoblanadi. Ma'lumki, jadidlarning Turkiston ozodligi uchun kurash dasturida uch asosiy yo‘nalish mavjud edi. Birinchisi - yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish, ikkinchisi - umidli yoshlarni chet ellarga o‘qishga yuborish va nihoyat, uchinchisi - turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziylolarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalar chop etish edi. Mazkur



harakat maqsadalariga ko‘ra, Vatan, millat va davr oldida turgan ulkan ijtimoiy–siyosiy, ma’naviy-ma'rifiy muammolarni Turkiston xalqlarini ma'rifatli qilish, ular hayotini qaytadan madaniylashtirish va zamonaviylashtirish yo‘li bilangina hal etish mumkin edi.

Jadidchilik turkiy xalqlar, shu jumladan, o’zbek xalqi tarixida yangi sahifani ocha boshlagan ijtimoiy harakat bo’lgan. Mustabid tuzimiga qarshi shafqatsiz kurash olib borganligining sababini tushunish qiyin emas. Chunki jadidchilik millat uyg’onishining va ko’tarilishining ijtimoiy sohada namoyon bo’lishi edi. Turkiston jadidlarini birlashtirishda «Jadidlarning rahbari» deb tan olingen Mahmudxo’ja Behbudiyning xizmati beqiyos bo’ldi. Jadidlar tarkibini yosh jihatdan tahlil qilish natijasida, jadidlarning Turkistonning bo’lg’usi davlat qurilishi dasturlarida, haqiqatan ham, yoshlar dunyoqarashi o’z aksini topganligiga ishonch hosil qilamiz.

Jadidchilik Markaziy Osiyoda va Yevropadagi ilg’or islohatlar oqimi ta’siri ostida, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida vujudga keldi va ijtimoiy taraqqiyotda burilish bosqichini belgilab berdi. Milliy ziyorilar, ilg’or tarakkiyparvar kuchlar mustamlaka Turkiston, Rossiyaga yarim qarash bo’lgan Buxoro va Xiva xonliklaridagi inqirozli ahvol, bu o’lkalarning umumjahon tarqqiyotdan tobora ortda qolayotgani, mahalliy aholining erk uchun intilishlarining bostirilish sabablarini, nafaqat iqtisodiy sohada, balki diniy, ma’naviy sohada ham yuzaga kelgan turg’unlikni chuqur anglab yetdilar va bu ular ongida jamiyatni isloh etish g’oyalarini uyg’otdiki, busiz taraqqiyotni tasavvur etib ham bo’lmasdi.[2]

Vatanimizdagi bu islo hatchilik harakati murakkab, tarixiy jihatdan serqira yo’lni bosib o’tdi. Jadidchilik turli mamlakatlardagi taraqqiyot, islohatlar uchun olib borilgan harakatlarning falsafiy tajribasini tanlab olib, bu tajribani milliy asosda qayta ishslashga intildi, ayni paytda, ijtimoiy taraqqiyot haqidagi turli qarashlarning to’qnashuv maydoni ham bo’ldi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g’oyasi, ana shu murakkab yo’lda shakllanib yetildiki, bu g’oyani biz bugungi kunda amalga oshirilayotgan o’zgarishlarning g’oyaviy nishonasi, keng miqyosdagi islohatlarning nasliy asosi sifatida baholashimiz mumkin.

Markaziy Osiyoda jadidchilik serqirra bo’lib, uning Turkiston, Buxoro, Xiva jadidchiligiga bo’lish lozim. Xususan Buxoro va Xiva jadidchilik o’ziga xos rivojlanib bu



shu hudud aholisining (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hg'olati bilan bog'liq edi). Jadidchilikning asosiy yo'nalishi bo'lib oqimlaridan biri – Buxoro jadidchiligi bo'lgan. Buxoro jadidchiligi o'z xususiyatlari va jamiyatning ahloqiy ahvoli bilan bog'liq edi. O'ziga xos tarzda ajralib turadigan va murakkab shaxs bo'lgan Fayzulla Xo'jayev, uning maslakdoshlari Buxoro jadidchiligidagi markaziy o'rinni tutdilar.[3]

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamонавиј bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda fidoyilarcha kurashdilar. Jadidchilikning tor-mor qilinishi turkiy millatlarning jahon miqyosida tanilishini deyarli bir asrga orqaga surdi, ularni hukmron mafkuraga va istibdodga qaram etib, komunistlarning millatlarini jadal sur'atlar bilan qo'shib yuborish strategik rejasi va nazariyasiga bo'yundirmoqchi edi.

Jadidchilik harakati bir asr davomida komunistik g'oyaning boshida tazyiqida keyinchalik-iskanjasida bo'lib, to'la ravishda namoyon bo'la olmadi. Uning zaminlari va shakllari tarzini o'rganish ta'qiq ostida bo'ldi. Bu masalalar va muammolarni o'rganish bizning jiddiy vazifamizdir. «Rivojlangan sotsializm» (1960-1985) yillaridagi misli ko'rinxagan mafkuraviy, ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy tazyiqqiga qaramay, o'zbek halqi o'zini millat sifatida o'ziga xosligini saqlab qola oldi, zimdan jadidlar o'rtaga oshirish vaqt-saoti kelishini umid bilan kutdi va bu vaqt mustaqillik bilan birga hayotimizga kirib keldi, chunki jadidlarning g'oyalari o'lmas g'oyalari edi.

Istiqlolga o'z-o'zidan erishib bo'lmasligini ular juda yaxshi anglar edilar. Istiqlolga erishgach esa, davlatni boshqarish va uni idora qilish, ishlab chiqarishni Yevropa davlatlaridagi darajaga ko'tarish, dunyo mamlakatlari bilan teng munosabatlar o'rnata olish, chet tillarni bilish lozim edi.

Buning uchun esa yangi maktablar ochib, unda asosan aniq fanlarga e'tiborni kuchaytirish, tegishli darsliklar yozish, muallimlar tayyorlash, yoshlarni chet ellarga o'qishga yuborish masalalari kun tartibiga qo'yildi va bu ishlarning aksariyati amalga oshirildi. Ular ochgan maktablar, yozgan darsliklar, piesalar, she'rlar, rivojlangan davlatlarda o'qib kelgan yoshlar fikrimizga asos bo'la oladi.



Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov hayotimizda dinning ahamiyati haqida gapirib, “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida ta'kidlagani kabi: “Barchamizga yaxshi ma'lumki, din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to‘g‘risidagi orzu-armonlarini o‘zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g‘oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir”[4] . Istiqlol yillarida el-yurtimiz taqdiriga daxldor bo‘lgan tarixiy adolatni tiklash, xalqimiz va millatimizning yaqin o‘tmishidagi yopiq sahifalarni to‘la ochib berish, shu tarixdan saboq chiqarib, bugungi va kelajak hayotimizga ongli qarashni shakllantirish, begunoh qurbon bo‘lgan insonlar xotirasini abadiylashtirish biz uchun ham qarz, ham farz edi.

Ayniqsa, bu borada tadqiqotlar olib borish ilmiy jamoatchilik zimmasidagi katta burch ekanini juda yaxshi ma'lum. Jadidlarning asarlarida diniy-ma'rifiy g‘oyalar, jumladan islam tarixini o‘rganish masalasiga juda muhim jihat sifatida qaralgan. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘tgan asrning boshidayoq ”Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur”, degan haqqoniy fikrlar bilan Turkiston ongu shu'urini uyg‘otishga da'vat etgani bejiz emas, albatta[5] .

Bunday miqyosli va tarixiy vazifani tor doiralarga mansub yoki muayyan tabaqaviy qarashlarga asoslangan oqim hal qilolmasdi. Jadidchilik oqimining asoschisi, mashhur qrim-tatar allomasi Ismoilbek Gaspralining g‘oyalari amalga oshishi natijasida XIX asrning oxirlarida Turkiston hayotida misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar bo‘ldi, hatto jahon tajribasida ko‘rilmagan shiddatli ijtimoiy-ma'rifiy to‘lqinni vujudga keltirdi, jadid allomalari Turkistonda milliy-mintaqaviy uyg‘onish jarayonini boshlab berdilar, ular yaratgan ilmiy-pedagogik, falsafiy axloqiy, badiiy-publistik asarlar, yangicha maktablar, yangi teatr, yangi adabiy-badiiy janrlar mintaqaviy va umumjahon miqyosida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu oqim o‘zida yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblarini jamlagan bo‘lib, ular yurtni obod va Vatanni mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda fidoyilarcha kurashdilar. Ular turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish, gazeta va jurnallarda chop qilish, xalqning ijtimoiy siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurishni maqsad qili qo‘ydilar.



Jadid ziylolarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi. Jadid mualliflar maqsadlariga yetishda yangi jadid maktablarini ochish, xalqni savodli qilish, zamon bilan hamnafaslikni olib kirish maqsadida turli xil darsliklar yaratdilar.

Tarixning ko'rsatishicha, jadidchilik harakatida orqaga yo'l yo'q edi: u ma'rifatchilik va tor doiradagi madaniylashtirishdan ish boshlab, siyosiy harakatga aylandi, o'z oldiga jamiyat va uni boshqarishni qayta qurishdek vazifalarni qo'ydi. Shunday qilib, jadidchilik fenomeni shundaki, keyingi uch asr ichida bu oqim birinchi bo'lib, milliy davlatchilik qurishga urundi, yagona mustaqil Turkiston uchun kurashdi va u milliy mustaqillik g'oyasiga asos soldi, uyqudagisi Sharqni uyg'onishga va harakatlanishga, ozodlik, milliy g'urur, o'z buyuk ajdodlari, boy madaniyati va umuman, mustamlaka tuzumning tazyiqi ostida unutilgan barcha qadriyatlarni xotirlashga undadi. Jadidlar ta'limoti – o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi.

Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni, shuningdek, barcha taraqqiyparvar ziylilarni o'z ketidan ergashtira oldi. Ularning faoliyati va dasturi kelajak uchun namuna bo'ldi. Jadidlar tomonidan pishib yetilgan ijtimoiy vazifalarni evolyusion – islo Hatchilik to moyillari asosida hal etishning ishlab chiqilganligi, ularning formasion – institusional o'zgartirishlarni, mustamlaka tuzumni tubdan yo'qotishning maksimal darajada samarali yo'llarini tanlay bilganliklari, shubhasiz, ularning tarixiy xizmatlaridir. [6]

Jadidlarning konseptual g'oyalari hozirgi o'zgarishlar amaliyotining ma'naviy darakchisi, bugungi kundagi strategiya va keng qamrovli islohatlar kursining genetik asosi bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Karimov I.A. „Biz qurish, yaratish yo'lidan boraveramiz “
2. D. Alimova, U Rashidov XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxorodagi siyosiy harakatlar va kurashlar. Buxoro – 2009.



3. Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohatlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash. T. «Ma'naviyat» 2001.
4. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T., Ma'naviyat, 2008.
  5. Karimov I.A. Tarixiy xotrasiz kelajak yo'q. –T., Sharq, 1997.
6. O'zbekistonni yangi tarixi. 1-kitob Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. T. «Sharq» 2000.

